

AQUAPANEL®

Choklar uchun yelim (PU)



AQUAPANEL® Ichki sement plita uchun

Tavsif

AQUAPANEL® Choklar uchun yelim (PU) Pardevor va devor qoplamalarini barpo etishda alohida «AQUAPANEL® Ichki sement plitalarini» plitalarini yelimlash uchun ishlatiladi.

Qo'llanishi

AQUAPANEL® Choklar uchun yelimni (PU) qo'llashdan oldin plitaning qirralari nam cho'tka yordamida changdan tozalanganiga ishonch hosil qiling. Yon chetlarning yuzasi quruq va toza bo'lishi kerak. Bu plitaga yaxshi yopishqoqlikni ta'minlaydi. AQUAPANEL® Choklar uchun yelimning uzluksiz qatlamini avvaldan qotirilgan «AQUAPANEL® Sement plita Ichki» qirrasiga surting.

O'rnatiladigan plita surtilgan yelim orqali zich jipslashadi (birikma kengligi 1 mm atrofida), shundan keyin burama mix orqali karkasga mahkamlanadi. Yelim navbatdagi plita joylashtirilguncha surtilishi lozim.

Plitalarni yelim bilan biriktirish choklarni o'zaklovchi tasma bilan shpaklyovkalashga hojat qoldirmaydi. Plitalar o'rnatib bo'lingach, choklarga yelim to'ldirish mumkin emas.

Yelimning ortiqchasini u qotib bo'lganidan keyin ertasi kuni shpatel bilan ko'chirib tashlang.

Material sarfi

~ 50 ml/m² (~ 25 ml/p. m. chok)

Bitta tubikdagi hajm quyidagi maydonga mo'ljallangan:

~ 6,5 m² (plita o'lchami 900 × 1200 mm)

~ 10 m² (plita o'lchami 1200 × 2400 mm)

Manzil:

Toshkent sh, Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

Kontaktlar:

+998 78 150 11 59

+998 78 150 11 60

+998 78 150 11 61

Texnik ma'lumotlar

Ko'rsatkich nomi	Ma'nosi
Tavsif	1K PUR yelim, yuqori yopishqoqlik
Zichligi	1,5 g/ml
Foydalanish harorati	qotgan holatda -40 °C – +80 °C
Namga chidam	C4 – EN12765 asosida
Ochiq vaqt	50 daqiqa (20 °C harorat va 65 % namlikda)

Material sarfi

Taxm. 15 daq/m². Plitani o'rnatish uchun o'zi kesuvchi mix va AQUAPANEL® Choklar uchun yelim (PU) talab etiladi.m²

Ishchi harorat

Material va atrofdagi harorat + 5 °C dan past bo'lmasligi lozim.

Ehtiyot choralar

Mahsulot bilan ishlayotganda himoya qo'lqoplari va ko'zoynaklaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Qadoq va saqlash

310 ml/tuba.

Shamollanadigan quruq joyda saqlansin, muzlashiga yo'l qo'ymang.

Saqlash muddati: 18 oy.

GISCODE: RU1.

Artikul: 49376

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.